



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA ORGANIK XALQARO STANDARTLARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Abdirayimov Azizbek Ro'ziqul o'g'li

Toshkent davlat agrar universiteti, Assistant

abdirayimov9191@mail.ru

Umarov Abduqodir Qobilovich

Toshkent davlat agrar universiteti, Magistr

abduqodirumarov03@gmail.com

Bahronova Shaxnoza Bahron qizi

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, Magistr

shakhnoza.8noza@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10100481>

ARTICLE INFO

Received: 03rd November 2023

Accepted: 09th November 2023

Online: 10th November 2023

KEY WORDS

Organik standart, mahsulot sifati, raqobatbardoshlik, mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari, organik qishloq xo'jaligi, ichki va tashqi bozor.

ABSTRACT

Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda xalqaro organik standartlarni joriy etish orqali tashqi va ichki bozorni sifatli va xavfsiz mahsulotlar bilan ta'minlash, organik tabiiy toza mahsulotlar bilan to'ldirish, Respublikada xalqaro organik standartlari talablariga muvofiq mahsulot ishlab chiqarish, tartibga solish va muvofiqlashtirish tizimlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlarini yaxshilash, eksport geografiyasini kengaytirish, shuningdek, mamlakatimizning organik mahsulot ishlab chiqarish salohiyatidan to'liq foydalanish imkoniyati o'rganilgan va tahlil qilingan.

KIRISH

Hozirgi zamon talabiga mos organik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash, diversifikatsiya qilish, tumanlararo hududlarini tuproq-iqlim sharoitlariga xos bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavot-polizchilik, kartoshkachilik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashtirish orqali ichki va tashqi bozor talablariga mos sifatli va xavfsiz, raqobatbardosh mahsulotlarni ko'paytirish hamda ilm-fan yangiliklarini keng joriy etish va organik oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorligini oshirish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda qishloq xo'jaligining barcha sohalari, shu jumladan, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini jadal rivojlantirish mahsulot sifatini yaxshilash hamda ulardan qayta ishlash sanoatida tayyorlanadigan mahsulotlarni ko'paytirish, bir so'z bilan aytganda, xalqimizning qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini to'la qondirishiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Organik qishloq xo'jaligini o'rganish va amaliyotga joriy qilish XX asrning 20-yillari boshlarida boshlangan. AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya va Germaniya olimlari uzoq yillar mobaynida insonlar oziq-ovqat mahsulotlari ta'minotchisi hisoblangan qishloq xo'jaligi va barcha tiriklikning asosi hisoblangan tuproq unumdorligi va uni saqlash masalalari bilan shug'ullanib kelishgan. Organik qishloq xo'jaligida barchasi tuproqdan boshlanib, aynan



organik qishloq xo'jaligi kashfiyotchilari ko'p yillik tadqiqotlar va mehnatlarini turlicha tuproqlarda sinab ko'rishgan.

Bugungi kunda, dunyodagi 172 mamlakatda organik qishloq xo'jaligi bilan shug'ullaniladi, boshqacha aytganda, dunyodagi 43,7 mln. gektar yer maydonini organik qishloq xo'jaligi band qilmoqda va taxminan 2,3 mln. fermer xo'jaligi organik ishlab chiqarishga jalb qilingan. Organik qishloq xo'jaligi - jahon brendi hisoblanadi.

Haqiqatdan ham, keyingi yillarda har bir mamlakat aholisining 80-90 foizi salomatlik ko'rsatkichlari bo'yicha me'yordan chetga chiqishi kuzatilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri - yuzaga kelgan ovqatlanish tizimining ekologik talablarga javob bermasligi hisoblanadi. Aholining barcha yosh guruhlarida ko'plab vitaminlar, mineral tuzlar, antioksidantlar va boshqa biologik faol moddalar yetishmaydi.

Mamlakatimizda 2022-yil 25-aprelda O'RQ-766-sonli "Organik mahsulotlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan bo'lib, u organik mahsulotlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish, markalash va sotish, shuningdek, muvofiqligini baholash va ruxsat berishni tartibga soladi.

Organik mahsulotlar – bu ularni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish va joriy etishning barcha bosqichlarida organik mahsulotlar to'g'risidagi qonun hujjatlari va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me'yoriy hujjatlar talablariga javob beradigan ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalangan holda yetishtirilgan sertifikatlangan mahsulotlar.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Rahbari va Hukumati tomonidan Organic standart talablarini joriy qilishni takomillashtirish maqsadida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar



2022-yil 25-apreldagi O'zbekiston Respublikasining "Organik mahsulotlar to'g'risida"gi O'RQ-766-son Qonuni;



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-maydagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5995-son Farmoni;



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 18-noyabrdagi "Organik mahsulotlar va xomashyolar hamda organik-mineral o'g'itlarning xavfsizligiga doir ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 729-son qarori;



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2021-yil 22-yanvardagi "Organik yer maydonlariga belgi va ko'rsatkichlar o'rnatish shakli va tartibi to'g'risida"gi 33-son qarori;



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2021-yil 23-fevraldagi "Organik qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 96-son qarori;



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan eksport qiluvchi tashkilotlarga moliyaviy yordam ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 826-son qarori.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunga kelib jahon bozorlarida ekologik toza mahsulotlarga bo'lgan talab ortib borayotgan bo'lsada, ularni ishlab chiqarish an'anaviy ishlab chiqarishga nisbatan katta xarajatlarni sarflanadi. Jumladan, ekologik toza mahsulotlarning bahosi oddiy mahsulotlarga nisbatan 3-5 barobargacha qimmat turadi.

O'z DSt 3290:2018 – "Organik qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari. Ishlab chiqarish, saqlash va tashish qoidalari". Ushbu standart organik qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini sifati va xavfsizligini ta'minlash, ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash, qadoqlash hamda transportda tashish qoidalari o'z ichiga qamrab olgan.

Organik qishloq xo'jaligi – bu dehqonchilik, chorvachilik va baliq yetishtirish tizimi bo'lib, unda atrof-muhitni muhofaza qilish va xo'jalik yuritishning tabiiy usullaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bu faqat yakuniy mahsulotgina emas, balki qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning butun jarayoni va yetkazib berishga ham tegishlidir.

Shu maqsadda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlashdan tortib, transportirovka qilish va yetkazib berishdan iborat butun siklida genetik jihatdan o'zgartirilgan organizmlar (GMolar), pestitsidlar, veterinariya preparatlari, kimyoviy qo'shimchalar va o'g'itlar kabi bir qator sun'iy mahsulotlardan foydalanish jiddiy ravishda cheklanadi.

Organik dehqonchilikning o'ziga xosligi shundaki, u an'anaviy dehqonchilikka nisbatan xarajatlarning yuqoriligi bilan farqlanadi. Organik mahsulotlar yetishtirishda ekologik toza havo, tuproq, suv va boshqa omillarning ahamiyati beqiyos va bevosita ana shu omillar bilan bog'liqdir.

Ekologik toza mahsulot yetishtiriladigan yerlarda, avvalo, 3 yil davomida tozalash tadbirlari o'tkazilishi talab etiladi. Shundan so'nggina tuproq tekshirilib, organik-ekologik toza mahsulot yetishtirish uchun sertifikat beriladi.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati korxonalari tomonidan sifat menejmenti talablari asosida **2020-yildan** bugungi kungacha jami **34 ta "Organic" sertifikati** olingan. Bu yetishtirilayotgan mahsulotlar turlari quyidagicha:

paxta, loviya, bug'doy, pomidor, qayta ishlangan paxta (tekstil mahsulotlari), turli xil sellyuloza qog'ozlari, dorivor o'simliklar, kovul, quritilgan uzum, quritilgan gilos, uzum, bodom yog'i, bodom, o'rik, o'rik yog'i, qora mayiz, quritilgan mayda kesilgan o'rik, quritilgan butun o'rik, "Sulton" mayizlari, "Tompson" mayizlari, uzum, oddiy mayiz va boshqa mahsulotlar.

Organik mahsulot yetishtirishda turli kimyoviy vositalar, mineral o'g'itlardan foydalanish va genetik jihatdan modifikatsiyalangan ekin navlarini ekish qat'iyan taqiqlanadi.

Bunda bir qator agrotexnik tadbirlar qo'l mehnati evaziga bajariladi. Shunday usulda yetishtirilgan mahsulotlar organik yoki ekologik toza mahsulot nomini oladi:



- iqlim sharoiti (havoning harorati, nisbiy namligi, atmosfera, yog'inlar miqdori, o'sish davrining davomiyligi, yorug'lik, bug'lanish, shamol esishi, foydali harorat yig'indisi).
- tuproq sharoiti - (tuproqning turi, mexanik tarkibi, tuzilishi, suv-fizik, agrokimyoviy, biologik xossalari, unumdorligi).
- relyef sharoiti - (mikro, mezo, mikro relyef shakllari).
- suv ta'minoti - (yer usti, yer osti suvlari va suvning sifati).

Organik mahsulotlar ishlab chiqarishga maxsus ekologik omillar hisobga olingan holda yerdan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirib borishga e'tibor qaratiladi. **Jumladan:**

- har bir ekin turlarini tuproq iqlim-sharoitlariga bog'liq holda to'g'ri joylashtirish;
- organik mahsulot ishlab chiqarish uchun resurs tejamkor texnologiyalar bilan yerga ishlov berish, organik o'g'itlardan keng foydalanish, sideratlar ekish, asosiy ekinlar orasida hamkor ekinlar yetishtirish;
- tuproq unumdorligini oshirib borish maqsadida sho'rlanish, zahlanish va botqoqlanish, tuproq eroziyasi, tuproqning zahlanishi, tuproqni turli chiqindilar bilan ifloslanishini oldini olish tadbirlarini qo'llash;
- organik mahsulotlar ishlab chiqarishda ekin maydonlaridagi begona o'tlarga, zararkunandalarga va kasalliklarga qarshi biologik, agroteknik kurash choralarini qo'llash.
- iqlim sharoitiga moslashgan, kasallik va zarakunandalarga chidamli mahalliy yuqori iqtisodiy samara beruvchi ekin turlari va navlarini yetishtirish muhim sanaladi.

Ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish qishloq xo'jaligi faoliyatini ko'klamzorlashtirishning asosiy vazifasi hisoblanadi. "Ekologik xavfsiz qishloq xo'jaligi mahsulotlari" tushunchasi insonlarning tabiat bilan uyg'unlikda sog'lom va samarali hayot kechirish huquqiga asoslanadi. Ekologik xavfsiz qishloq xo'jaligi mahsulotlari - bu turli xil mahsulot turlari (ishlab chiqarish - qayta ishlash - iste'mol qilish) uchun qabul qilingan "hayot sikli" davomida belgilangan organoleptik, umumiy gigiena, texnologik va toksikologik standartlarga mos keladigan va odamlar, hayvonlar va hayvonlarga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan mahsulotlar. hayvonlar salomatligi, atrof-muhit holati.

O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan "ORGANIC" standartlari ro'yxati

1-jadval

T/r	Me'yoriy hujjatning shartli belgilanishi	Me'yoriy hujjatning nomi
1	GOST 16923-83	Mahsulotlar organik. Titrlangan eritmalarni diazotlash va kombinatsiyalash usullari bilan tahlil qilish uchun tayyorlash
2	GOST 33980-2016	Organik ishlab chiqarish mahsulotlari. Ishlab chiqarish, qayta ishlash, markalash va sotish qoidalari
3	O'z DSt 3084:2016	Organik qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari. Shartlar va ta'riflar
4	O'z DSt ISO 5515:2013	Meva, sabzavotlar va ularni qayta ishlash mahsulotlari. Tahlil qilishdan oldin organik moddalarning parchalanishi. Nam usul.



5	O'z DSt ISO 5516: 2013	Meva, sabzavotlar va ularni qayta ishlash mahsulotlari. Tahlil qilishdan oldin organik moddalarning parchalanishi. Kuyish usuli
6	O'z DSt 3063:2016	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari. Karantin tekshiruvi va ekspertizasi vaqtida namuna olish usullari.
7	O'z DSt 3290:2018	Organik qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari. Ishlab chiqarish, saqlash va tashish qoidalari.

O'zbekiston Respublikasi Davlat reestriga kiritilgan xorijiy mamlakatlarning milliy "ORGANIC" standartlari ro'yxati

2-jadval

T/r	Me'yoriy hujjatning shartli belgilanishi	Me'yoriy hujjatning nomi
1	GOST R 56104-2014	Organik oziq-ovqat mahsulotlari. Shartlar va ta'riflar
2	GOST R 57022-2016	Organik ishlab chiqarish mahsulotlari. Organik ishlab chiqarishni ixtiyoriy sertifikatlashtirishni o'tkazish tartibi.

O'zbekiston Respublikasida organik qishloq xo'jaligi va organik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- organik mahsulotlarni rasmiy kafolatlash va ishlab chiqarish hajmini oshirish, ishlab chiqaruvchilarning xorijiy bozorlarga kirishini yengillashtirish va eksport geografiyasini kengaytirish;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilash va yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish, qishloq aholisining bandligini oshirish;
- sog'lom ovqatlanish imkoniyatini mustahkamlash, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining yuqori sifati hamda xavfsizligini oshirish, atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish;
- tuproq unumdorligini oshirish va degradatsiyasining oldini olish, ekotizimning biologik xilma-xilligini, ekologik barqarorlikni saqlab qolish, "daladan dasturxongacha" texnologik sxemasi bo'yicha sertifikatlashtirish va nazorat tizimlarini kuchaytirish;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish va malakali mutaxassislar tayyorlash ishlarini jadallashtirishga qaratilgan.

“ORGANIC” XALQARO STANDART TALABLARI ASOSIDA MAHSULOTLAR YETISHTIRISH

Standardlar maqsadi

“Organic” xalqaro tan olingan standart talablari asosida mahsulotlar yetishtirish hozirgi kunda oziq-ovqat xavfsizligiga bo'lgan talabni qondirish va inson salomatligi uchun ahamiyatli bo'lgan ekologik toza mahsulot yetishtirishni o'z ichiga oladi.

Standardlar mohiyati

“Organic” mahsulotlar – ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, transportda tashish va realizatsiya qilishning barcha bosqichlarida organik mahsulotlar to'g'risidagi qonunchilik hamda texnik jihatdan tartibga solish doirasidagi normativ hujjatlar talablariga javob beradigan ishlab chiqarish texnologiyalarini qo'llagan holda ishlab chiqish natijasida olingan sertifikatlashtirilgan mahsulotlar.

“Organic” usulda mahsulot yetishtirish orqali

- agrobioxilma-xillik qo'llab-quvvatlanadi
- tuproq unumdorligi saqlanadi va oshiriladi
- atrof-muhit, inson va hayvonot olami salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi omillar kamaytiriladi
- har qanday genetik manipulyatsiyalardan holi bo'lgan ishlab chiqarish ta'minlanadi (genetik muhandislik texnikasi “GMO”)

Sertifikatlashtirish yuzasidan mavjud ko'rsatkichlar

Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasida xalqaro tan olingan standart talablari asosida sertifikatlashtiruvchi organlar.	10 ta
Maslahat xizmatini ko'rsatuvchi idoralar.	2 ta
Organik sertifikatga ega korxonalar	30 ta

“Organic” xalqaro tan olingan standarti talablari asosida yetishtirilayotgan ekinlar

- texnik ekinlardan: paxta, bug'doy,
- dorivor o'simliklardan: kovul
- meva-sabzavot mahsulotlaridan: pomidor, uzum, gilos
- dulkakli o'simliklar mahsulotlari: mosh, loviya

Qaysi davlarga eksport qilindi

Qirg'iziston	Italiya	Fransiya
Qozog'iston	Isroil	Germaniya
AQSH	Rossiya	Turkiya

Eksport qilinayotgan mahsulotlar

Pomidor, har xil turdagi choylar, kovul, bodom yog'i, bodom, o'rik, qora mayiz, quritilgan o'rik, sulton mayizlari, tompson mayizlari



1-rasm. “Organic” xalqaro standart talablari asosida mahsulotlar yetishtirish.

Respublikamizda organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun quyidagi qulay sharoitlar mavjud:

- zaharli moddalar bilan zararlanmagan ekin maydonlari;
- tomorqa xo'jaliklarida yetishtirilgan organik mahsulotlarni eksport qilish natijasida aholi daromadini oshirish imkoniyati;
- organik ishlab chiqarish bo'yicha agroklastar, logistika va kooperatsiya tizimlarini rivojlantirish natijasida aholi bandligini oshirish imkoniyati;
- laboratoriyalar, nazorat va sertifikatlashtirish tizimlarini takomillashtirish hisobiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini tahlil qilish imkoniyati;
- genetik modifikatsiyalangan organizmlar (GMO)dan holi mintaqalar.

Organik mahsulotlar yetishtirishda tuproq sharoitiga qo'yiladigan talablar

- ❖ organik mahsulot yetishtirishda tuproqning tabiiy unumdorligi yuqori (ball bonniteti 60 dan ko'p) bo'lishi kerak;
- ❖ tuproq zichligi 1,30-1,35 t/m³, g'ovakligi 50-55%;
- ❖ gumus miqdori haydalma qatlamda 1,0% dan ko'p bo'lgan;
- ❖ tuproqdagi tabiiy harakatchan azot, fosfor va kaliy oziqa moddalari bilan o'rtacha va yuqori ta'minlangan;
- ❖ sho'rlanmagan yoki kam sho'rlangan (sho'ri yuvilgan);
- ❖ sizot suvlari ta'sirida zaxlanmaydigan va botqoqlanishga moyil bo'lmagan yerlar;
- ❖ suv va shamol eroziyasiga uchramagan tuproqlar;
- ❖ sanoat va maishiy chiqindilar ta'sirida bo'lmagan yerlar;
- ❖ tabiiy suv manbasi bilan yetarlicha ta'minlangan yerlar.

Organik mahsulotlarni ishlab chiqarish sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

- fuqarolar hayoti va sog'lig'ini saqlashning, shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilishning ustuvorligi;
- organik mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'nalishini tanlashdagi ixtiyoriylik;
- organik mahsulotlar to'g'risidagi axborotning shaffofligi va ochiqligi;
- qayta tiklanadigan tabiiy resurslardan foydalanish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash.



Organik mahsulotlarda genetik modifikatsiyalangan organizmlardan foydalanish taqiqlanadi. Bu shuni anglatadiki, organik mahsulotlar etishtirishda GMO urug'lari ishlatilmaydi yoki hayvonlar GMO beda yoki makkajo'xori iste'mol qila olmaydi. Barchasi shuni ko'rsatadiki, organik mahsulot GMO bo'lmagan deb hisoblanadi, chunki GMO mahsulotlari organik oziq-ovqat ishlab chiqarishda ishlatilmaydi. Organik oziq-ovqat tarkibida pestitsidlar, o'g'itlar, erituvchilar yoki qo'shimchalar mavjud emas. Biroq, GMO bo'lmagan mahsulot har doim ham organik mahsulotni anglatmaydi.



GMO - bu ma'lum bir istalgan xususiyatlarni oshirish uchun genlarni bir turdan boshqasiga kiritish orqali laboratoriyada yaratilgan o'simliklar yoki hayvonlar. Ishlab chiqarish nuqtai nazaridan, bu odatda o'simliklarni pestitsidlarga, kasalliklarga va yuk tashishdagi qiyinchiliklarga chidamli qiladi.

Ba'zan maqsad hatto ozuqaviy tarkibni yaxshilashdir. Ammo o'simlik yoki hayvonning DNKdagi o'zgarishlar uni saraton xavfi nuqtai nazaridan noma'lum qiladi va bozorga chiqarilishidan oldin GMO tadqiqotlari yetarli emas.

Organik oziq-ovqatlarni iste'mol qilish bu ishni osonlashtirishi mumkin, chunki organik ovqatlarda ko'pincha oziq-ovqat vitaminlari mavjud.



Buning sababi, mas'uliyatli va barqaror yetishtirish usullari organik dehqonchilikning asosiy tamoyillaridan biridir. Tuproq ehtiyotkorlik bilan o'stiriladi va hech qachon muhim oziq moddalarini yo'qotmaydi. Shunday qilib, organik ekinlar ularga ko'proq kirish imkoniyatiga ega.

Bir necha tadqiqotlar shuni tasdiqladiki, organik ravishda o'sadigan oziq-ovqatlar odatdagi ovqatlarga qaraganda o'rtacha 27% S vitaminlari, 29,3% ko'proq magniy, 21,1% ko'proq temir va 13,6% ko'proq fosfor bilan ta'minlaydi. Organik ovqatni iste'mol qilish to'g'ri ovqatlanishni osonlashtiradi. Bu hayot davomida saraton xavfini kamaytirishga olib keladi.

Organik mahsulotlarni iste'mol qilish darajasi ko'pincha aholining ishga layoqatliligi va uzoq umr ko'rish davomiyligini belgilaydi. Shu sababli sog'lom ovqatlanish va inson sog'ligi va salomatligi uchun xavfli mahsulot yetishtirishning oldini olish yo'llari to'g'risidagi bilimlarni ommalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Organik mahsulotlar ishlab chiqarish jarayoniga ma'lum bir talablar, xususan qayta tiklanadigan tabiiy resurslar va ichimlik suvidan foydalanish bo'yicha vazifalar qo'yildi.

Organik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hamda ishlab chiqarishda pestitsid, gormon, antibiotik va kimyoviy qo'shimchalarni qo'llash taqiqlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, Respublikamizda qishloq xo'jaligi sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri sifatli va xavfsiz qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash darajasini yanada oshirish, zamonaviy talablarga to'liq javob beradigan ishlab chiqarish infrastrukturasini tashkil qilish, standartlashtirish hamda agrobiznes yo'nalishlarida konsalting, marketing xizmatlarini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot va ilg'or tajribalarga asoslangan intensiv agrosanoat tizimini tashkil qilish, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini sifati va xavfsizlik ko'rsatkichlarini xalqaro talablar asosida baholashga erishish va agrar sohaga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy qilishdan iboratdir.

Organik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hamda tabiiy oziq-ovqatni ko'proq iste'mol qiladigan odamlar sog'liq uchun umumiy majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Ko'p miqdorda organik mahsulot sotib oladigan odamlar yuqori daromadga ega bo'lishadi, bu esa yuqori darajadagi profilaktika yordamidan foydalanish orqali salomatlikni saqlashga yordam beradi.

Natijada, organik mahsulotlarni iste'mol qilish va ulardan unumli foydalanish saraton kasalligining oldini olishga qaratilgan turmush tarzining faqat bir qismidir. Bu aniq foydalidir, lekin o'zingiz va oilangiz uchun sog'liqni saqlashni yaxshilash uchun qila oladigan yoki qilishingiz kerak bo'lgan yagona narsa bu emas. Agar siz organik mahsulotlarni iste'mol qila olmasangiz, meva va sabzavotlarni sotib olishni to'xtatmang. Iste'mol qilishdan oldin mevani suv bilan yuvib, sodali suvda namlashga urinib ko'ring, shunda pestitsid qoldiqlarini yolg'iz yuvishdan ko'ra ko'proq tozalashni unutmang.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-sonli «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga



mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2022 yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 maydagi PF-5995-sonli «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi qarori.

3. Muminov Najmiddin Shamsiddinovich, Odinaev Mirzamad Isaevich, Abdirayimov Azizbek Ro'ziqul O'g'li, Rajabov Sardor Jumaboy O'g'li, (2021). Problems Of Quality Assurance And Export Potential Of Grapes. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering, 3(06), 38-44.

4. Назаров А.М., Абдирайимов А.Р. (2021) Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг рақобатбардошлигини ошириш орқали мамлакат экспорт салоҳиятини мустаҳкамлашнинг долзарб масалалари. Academic Research in Educational Sciences, 2(6), 310-318 б.

5. Odinayev, M. I., Hakimov, D. V., & Abdirayimov, A. R. (2022). Eksportbop qovun va tarvuz navlarini yetishtirish va ularning agrobiologik xususiyatlari. Academic Research in Educational Sciences, 3(12), 525-535.

6. Абдирайимов А.Р., Асилова Ф.М., Умаров А.Қ. (2023). Ишлаб чиқариш корхоналарида маҳсулот сифатини назорат қилиш тизимини такомиллаштириш. Eurasian Journal of Academic Research volume 3, Issue 3, March 2023. ISSN 2181-2020. 44-49 б.

7. Abdirayimov A.R., Odinayev M.I., Asilova F.M.(2023). "[Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari sifat ko'rsatkichlarini sensorik baholashning sifat tahlili usullarini takomillashtirish](#)" Eurasian journal of mathematical theory and computer sciences. Volume 3 Issue 1, January 2023 ISSN 2181-2861. 58-62 betlar.

8. Abdirayimov, A. R., & Muminov, N. Sh. (2023). Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport salohiyatini oshirishda vujudga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 167-173.

9. Muminov N.Sh., Kendjaev A.A., Abdirayimov A.R. (2021). [Analysis Of International Experience In The Field Of Quality And Competitiveness Of Agricultural And Food Products](#) The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering 3 (09), 1-7 betlar.

10. Asilova F.M., Abdirayimov A.R., Sirojiddinov J.S (2022). [Measures to increase the quality and safety indicators of agricultural products and expand the geography of exports](#). Agro inform journal, 48-51 betlar.